

**Turg'unboyeva Arofatxon Otabek qizi**

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ingliz tili 1-fakulteti 2418-guruh talabasi*

**TOG'**

To'g', qaddi-qomating go'zalligidan hayronman,  
Mojizaviy husningga boqib, yolg'on tuyular jahon.  
Seni ko'rgan zahotim qilaman shirin orzular,  
Senga termilib-termilib, bilmayman nechun vaqt o'tar.  
Ammo shuni bilaman — sening go'zalliging  
Men uchun qiziqdir har dam, har lahza.  
Lol qolaman osmon uzra balandligingga,  
Lol qolaman cho'qqingni zabt etgan Alplaringga.  
Oh, bunchalar go'zalsan, ey baland tog',  
Sen go'zallikni tasvirlagan yuksak chog'.  
Har bir cho'qqingda bor armonlar izi,  
Yuksaklikda yashar hayotning siri.

**HAYOT**

Hayot sinovidan o'tmoqdamiz birma-bir,  
Sinalmoqda sabr-u bardoshimiz bir.  
Lekin shukr qilishni bilmay, unutib,  
O'tib bormoqda kunlarimiz shoshib.

Berilgan ne'matlar bor har bir bandaga,  
Goh ko'p, goh kam – ba'zi insoniga.  
Nazar sol, atrofingni bir ko'r,  
Shukr ila yashash – eng go'zal sir.

Qiyinchiliklar o'tar, ketar, bilgin,  
Bu hayot – shunchaki sinovdir, tingin.  
Yiqilma, qoqilma, sen bo'lg'in mahkam,  
Bu hayot shunchaki kuchlilarga xos.

Hayot yo'llari to'siq bilan to'ladi,  
Qadam bosar chog'da qoqiltirar har bir.  
Kuchsizlar harakat qilar to'xtatmoqqa yo'lingni,  
Sen esa mustahkam tur, egma bo'yingni.

“Kuchsizman,” dema, kuchlisan, bilgin,  
Boshqalarning yutug‘iga boqib, so‘nmasin ishonching.  
Oldinga qadam qo‘y, orqaga boqmagin,  
Maqsading yo‘lida aslo to‘xtamagin.

Maqsadiga yetganlarni ko‘rganingda,  
Osondek tuyular bor narsasi dunyoda.  
Lekin bilmasdan, unutma asl haqiqatni,  
Qanday mashaqqat bilan bosgan yo‘llarini.